

**PROFLAKTIKA INSPEKTORINING MAHALLA HUQUQ-TARTIBOT  
MASKANIDA "XAVFSIZ TALIM MUASSASASI" TAMOYILI ASOSIDA ISHLASH  
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Bekmirzayeva Iroda Mashrabboy qizi**  
*Huquqbuzarliklar Profilaktikasi yo'nalishi kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “Xavfsiz ta’lim muassasasi” tamoyilini amalga oshirish orqali joylardagi ta’lim muassasalarida profilaktika inspektorlarining ish faoliyatini takomillashtirish yoritilgan. Jamiyatga yo’naltirilgan politsiya faoliyati va profilaktika strategiyalariga yo’naltirilgan ushbu tadqiqot inspektorlarning ta’lim muhitida qonun va tartibni saqlashdagi samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ko’p tarmoqli yondashuvlarni qo’llash va idoralararo hamkorlikni, texnologik yutuqlarni va faol ishtirokni ta’kidlab, ushbu tadqiqot talabalar, o’qituvchilar va maktab jamoalarining xavfsizligi va farovonligini ta’minlash bo’yicha rivojlanayotgan nutqlarga hissa qo’shadi.*

**Kalit so’zlar:** *Profilaktika inspektori, Mahalla huquqni muhofaza qilish organlari, Xavfsiz ta’lim muassasasi, Jinoyatchilikning oldini olish, Ta’lim muhiti xavfsizligi.*

Zamonaviy jamiyatlarda ta’lim muassasalari yosh shaxslar muhim vaqt o’tkazadigan hayotiy ijtimoiy muhitdir. Bu joylarda xavfsizlik ustuvor ahamiyatga ega, chunki bu o’quvchilarning jismoniy xavfsizligi va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir qiladi. "Xavfsiz ta’lim muassasasi" tamoyili ushbu standartlarni amalga oshirish va qo’llab-quvvatlash uchun profilaktika inspektorlariga tayanib, mumkin bo’lgan xavfsizlik muammolarini oldini olish bo’yicha faol choralarni birlashtiradi. Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining ta’lim muassasalaridagi ish samaradorligini optimallashtirish bo’yicha turli strategiyalar va ularning xavfsiz muhitni yaratishdagi roli ko’rib chiqiladi.

Bugungi kunda xalq ta’limi va maktabgacha ta’lim muassasalarida ko’pincha voyaga yetmaganlar ta’lim oladi. Shuning uchun ham profilaktika inspektori tomonidan hozirgi davr mobaynida ta’lim muassasalari bilan hamkorligi asosida huquqbuzarliklarni oldini olish, bartaraf etishda yangicha tizim, yangicha g’oya talab etmoqda.

Chunki hozirgi kunda voyaga yetmaganlarga ko’plab imkoniyatlar yaratilgan bo’lib, ular nafaqat yurtimizda balki, chet el mamalakatlarida o’qish va ishlash imkoniyatlariga ega va hozirgi kunda ko’plab voyaga yetmaganlar bu imkoniyatlardan foydalanmoqda. Bu esa profilaktika inspektoriga zamon talabi asosida ish faoliyatini olib borishva ta’lim muassasalari bilan o’zaro hamkorlik qilishni talab etmoqda. Ular bilan bevosita hamkorlik qilish davomida voyaga yetmaganlarni Vatanga muhabbat, qonunlar va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, ularning huquqbuzarliklar va jinoyat sodir etishini oldini olish, bartaraf etish, g’ayriijtimoiy xulq-atvorida bo’lgan o’zgarishlar vahuquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo’lgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash, ularni ijtimoiy moslashtirish choralarini ko’rishdan iboratdir.

Ta’lim muassasalari organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatiga kirishdan avval biz bir nechta savollarga javob topishimiz lozim, yani:

- 1) Huquqbuzarliklar profilaktikasi o‘zi nima?
- 2) Huquqbuzarliklar profilaktikasi qanday ish?
- 3) Hamkorlik deganda nima tushuniladi?
- 4) Huquqbuzarliklar profilaktikasini qaysi organlar tashkil etadi?
- 5) Ta’lim muassasalari organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga qanday aloqasi bor?

**Huquqbuzarliklar profilaktikasi** - huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi;

**Huquqbuzarliklar profilaktikasi ishi** tor manoda, vakolatli subektlar tomonidan huquq-tartibotni saqlash hamdamustahkamlash, huquqbuzarliklar va oldini olishga, aniqlashga, to‘xtatishga hamda bartaraf etishga qaratilgan faoliyat tushunilsa, keng manoda, jamiyatning xar bir xar bir azosi, jumladan xar bir korxona, muassasa, tashkilotlar, davlat organlari, Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va axolining jamiyatda sodir etilishi mumkin bo‘lgan, sodir etilayotgan va sodir etib bo‘lingan muayyan bir salbiy xolat, voqea , xodisa yoki jarayonni oldini olish, aniqlash , to‘xtatish, sodir etilishiga imkon berayotgan shart- sharoitlarni bartaraf etish, agar ushbu xolat sodir etilib bo‘lgan bo‘lsa, uning keyingi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi.

Avvalgi tadqiqotlar maktablarda xavfsiz muhit muhimligi va o‘quvchilarning xavfsizlik haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda profilaktik huquqni muhofaza qilishning o‘rni ta’kidlangan. Jamoatchilikka yo‘naltirilgan politsiya modellari yoshlar va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida ishonchni mustahkamlashda ijobiy natijalarni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, maktab xavfsizligining psixologik va ijtimoiy ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar xavfsizlik tushunchalari va akademik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi, bu aniq belgilangan profilaktika choralariga bo‘lgan muhim ehtiyojni ta’kidlaydi.

Jamoatchilikka yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash orqali profilaktika inspektorlari talabalar va xodimlar bilan yanada chuqurroq munosabatlarni rivojlantirishlari mumkin. Bu usul muntazam tekshiruvlar, xavfsizlik bo‘yicha muhokamalar va profilaktika choralari bo‘yicha o‘quv seminarlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jamoatchilik asosidagi politsiya ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi, bu esa odamlarda muammolar avj olishidan oldin xabar berish ehtimolini oshiradi.

Xulq-atvor muammolari yoki jinoiy faoliyatdagi tendentsiyalarni aniqlash uchun ma’lumotlar tahlilidan foydalanish inspektorlarga faol choralar ko‘rish imkonini beradi. Maktablar dars qoldirmaslik, giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish yoki zo‘ravonlik kabi hodisalar haqida ma’lumot to‘plash uchun huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bashoratli modellar zaif vaqtlarni yoki yuqori xavfli hududlarni ajratib

ko'rsatishi mumkin, bu esa inspektorlarga potentsial muammoli joylarga samarali e'tibor qaratish imkonini beradi.

Kuzatuv kameralari, favqulodda ogohlantirish tizimlari va hodisalar haqida xabar berish ilovalari kabi texnologik vositalar profilaktika inspektorining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga tezkor javob berish qobiliyatini oshiradi. Masalan, geofencing texnologiyasi inspektorlarni maktab hududida ruxsat etilmagan shaxslar haqida ogohlantirishi mumkin, shu bilan birga hodisalar haqida xabar beruvchi ilovalar talabalar va xodimlarga hokimiyatni tezda xabardor qilish imkonini beradi.

Emotsional yoki xulq-atvordagi iztirob belgilarini erta aniqlash hodisalarning oldini oladi. Psixologik baholashning asosiy usullari bo'yicha o'qitilgan profilaktika inspektorlari o'z vaqtida aralashuvni ta'minlash uchun maktab maslahatchilari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Psixo-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash usullari erta ogohlantirish tizimlari bilan birgalikda reaktiv emas, balki profilaktik yondashuvni osonlashtiradi.

Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalariga "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 17-moddasida qayd qilib o'tilgan ya'ni quyidagicha bayon etilgan:

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

Ta'lim oluvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

Ta'lim oluvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

Ta'lim oluvchilarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni ishlab chiqadi va ta'lim muassasalarining ish amaliyotiga joriy etadi;

Ta'lim oluvchilar orasida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlaydi hamda ularga nisbatan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

Ta'lim oluvchilarning bandligini va bo'sh vaqti mazmunli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida ta'lim muassasalarida hammabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil etadi;

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari ichki ishlar organlariga;

Odamlarning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar to'g'risida va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklar haqida;

Ta'lim oluvchi shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvorga va huquqbuzarliklar sodir etishga jalb etilganligi haqida;

Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar haqida xabar qilishi shart.

Profilaktika inspektorlari tomonidan o‘quvchilarning ta‘lim muassasalaridagi davomatini nazorat qilish, ijtimoiy xavfli holatda bo‘lgan va ta‘lim muassasalariga qatnamaydigan voyaga yetmaganlar va yoshlar, shuningdek, ushbu toifadagi shaxslarning ota-onalari bilan profilaktik ishlarni olib borish vakolati yuklatilgan bo‘lib, ushbu vakolatni amalga oshirish davomida voyaga yetmaganlar va yoshlarning jamiyatga salbiy ta‘sir etuvchi xatti-harakatlarga qo‘shilib ketishlarining oldini olish maqsadida ta‘lim muassasalarida davomatning yuqoriligini ta‘minlash, dars mashg‘ulotlariga sababsiz qatnashmayotgan o‘quvchilarni ta‘limga qaytarish bo‘yicha 93 769 marotaba "Davomat" tadbirlari o‘tkazilib, dars mashg‘ulotlariga sababsiz qatnashmagan 9 017 nafar o‘quvchilar ta‘limga qaytarildi, 1 586 nafar farzandlarini nazoratsiz qoldirgan ota-onalarga hamda 248 ta ta‘lim muassasalari xodimlariga nisbatan tegishli choralar ko‘rildi, tadbirlar davomida o‘quv mashg‘ulotlarida qatnashmay yurgan 3 706 nafar voyaga yetmaganlar aniqlanib, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga 1 590 ta hujjat yuborildi.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar yoshlarimizga keng ko‘lamda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ushbu islohatlar natijasida yoshlarimizning ta‘lim-tarbiya va ma‘naviat- marifat sohasida, sport sohasida ko‘plab imkoniyatlar ochmoqda. Lekin ayrim yoshlarimiz orasida turli huquqbuzarlik va jinoyatchilik oshib borilayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan voyaga yetmaganlar bilan ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish uchun 2021-yil 2-aprel kuni qabul qilingan "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmonida Ichki ishlar vazirligi va Xalq ta‘limi vazirligining «Xavfsiz ta‘lim muassasasi» tamoyili asosida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo‘yicha manzilli choralarni nazarda tutuvchi quyidagi takliflari ma‘qullandi. Tuman, shahar ichki ishlar organlari tarkibida 2 000 ta shtat birliklaridan iborat voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixolog (keyingi o‘rinlarda — inspektor-psixolog) lavozimlarini joriy etish hamda ularning bevosita xizmat o‘tash joyi etib umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini belgilandi. Joylarda inspektor-psixologlar zimmasiga har bir o‘quvchi kesimida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz

munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish, muammoli o‘quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash vazifalarini yuklash.

Belgilab qo‘yildiki, 2021-yilda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining 2 000 ta psixolog shtat birligini 2021-yilning 1-iyulidan qisqartirish evaziga 1 100 ta inspektor-psixolog shtat birligi kiritiladi va 2022-yilda qo‘shimcha 900 ta shtat birligini kiritish orqali ularning soni 2 000 yetkazish belgilab berildi.

Mamlakatimizda oilaviy qadriyatlar ustun hisoblanib, har bir bola avvalo oilada tarbiya oladi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarining tarbiyalariga yaxshi e‘tibor qaratishlari lozim. Lekin jamiyatimizda farzandlarining tarbiyasiga e‘tibor- siz ota-onalar ham mavjud.

Profilaktika inspektorklari ana shu ota-onalarga tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan- larning ota-onalarini javobgarlikka tortish orqali ularning zimmlariga yuklatilgan majburiyatlarni talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, ta'lim olishiga jiddiy yondashishiga erishilsa bu voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarning pasayishiga xizmat qiladi.

**Xulosa.**

“Xavfsiz ta'lim muassasasi” tamoyilini amalga oshirish ko'p qirrali strategiyani talab qiladi. Jamiyatga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash, texnologiyadan foydalanish va fanlararo hamkorlikni rag'batlantirish orqali profilaktika inspektorklari maktablarda xavfsizlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Strukturaviy ta'lim va siyosatni qo'llab-quvvatlash orqali mavjud muammolarni hal qilish inspektorklarga xavfsiz ta'lim muhitini saqlashda yanada sezgir va samarali bo'lish imkonini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев М.М.—“Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Т: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. 143-144 б.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. Rasmiy nashr. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16 sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni.